

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAMBETNAZAROV GENJEMURAT DJUMABAEVICH**

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MAHALLIY DAVLAT**  
**HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARINING VAKOLATLARINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi

Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
**AVTOREFERATI**

**Nukus – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)**

**Mambetnazarov Genjemurat Djumabaevich**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining vakolatlarini takomillashtirish masalalari..... 3

**Мамбетназаров Генжемурат Джумабаевич**

Вопросы совершенствования полномочий представительных органов местной государственной власти Республики Каракалпакстан..... 21

**Mambetnazarov Genjemurat Djumabayevich**

Issues of improving the powers of representative bodies of local government of the Republic of Karakalpakstan..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAMBETNAZAROV GENJEMURAT DJUMABAEVICH**

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MAHALLIY DAVLAT  
HOKIMIYATI VAKILLIK ORGANLARINING VAKOLATLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.  
Moliya va bojxona huquqi

Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
**AVTOREFERATI**

**Nukus – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Yu1035 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.karsu.uz](http://www.karsu.uz)) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Reymova Zuxra Abatbaevna**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ismailova Gulnoza Saydig‘anixo‘jaevna**  
yuridik fanlari doktori, professor.

**Allambergenov Saparbay Dauletbaevich**  
yuridik fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi  
Davlat va huquq instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “\_\_\_”-oktabr kuni soat\_\_.<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1). Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49; e-mail: [karsu.info@edu.uz](mailto:karsu.info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (213-raqam bilan ro‘yxatga olingan (Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko‘chasi, 1).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “\_\_\_”-sentabr kuni tarqatildi.  
(2024-yil \_\_\_ -sentabr “\_\_\_” raqamli reestr bayonnomasi).

**E.D.Kutibaeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
yuridik fanlar doktori, professor

**G.M.Berdimuratova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa (PhD)  
doktori, dotsent

**K.U.Umarova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, yuridik fanlar  
doktori, professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda barcha mamlakatlar uchun o‘zining davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini qurish hamda tizimdagi organlar faoliyati yo‘nalishlarini belgilash muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro Pakti 1-moddasiga muvofiq “xalqlar o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ega”ligi har bir davlat uchun o‘z taraqqiyot yo‘nalishini belgilashdagi muhim huquqiy asos hisoblanadi<sup>1</sup>. Shu kabi xalqaro-huquqiy hujjatlardan kelib chiqib, mamlakatlar mahalliy vakillik organlarini demokratik tarzda shakllantirishi o‘z navbatida demokratik-huquqiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, aholining davlat ishlarini boshqarishda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqini amalga oshirishlari uchun bevosita xizmat qiladi.

Jahonda mahalliy vakillik organlari faoliyatiga oid ilmiy tadqiqotlar, jumladan mahalliy vakillik organlarining tashkil etilishi va taraqqiyot bosqichlari hamda huquqiy maqomiga oid institutsional va huquqiy asoslar, mahalliy vakillik organlarining strukturaviy tuzilishi va faoliyat yo‘nalishlari, mahalliy vakillik organlarining ishchi va yordamchi tuzilmalarining faoliyati, mahalliy vakillik organlari deputatining maqomi va qonunchilik bilan belgilangan funksional vazifalari, ilg‘or xorijiy davlatlarning ijobiy va samarali tajribasi asosida mahalliy vakillik organlarining faoliyatini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish, mahalliy vakillik organlari faoliyatiga oid qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga oid masalalarga muhim ilmiy ahamiyat kasb etuvchi tadqiqot yo‘nalishi kabi alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda mahalliy kengashlarning ijroiya hokimiyatdan ajratilgan holda ularning davlat boshqaruvidagi o‘rmini yanada mustahkamlash, mahalliy kengashlar va deputatlarining maqomiga oid amaldagi qonunchilik hujjatlarini isloh qilish, shuningdek mahalliy kengashlar va ularning ishchi organlari faoliyatining institutsional hamda huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli va samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ta’kidlash lozimki, “Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning chinakam “ovoziga” aylantirish” masalalari “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalardan biri bo‘lib, mazkur vazifalar Qoraqalpog‘iston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari va ularning vakolatlariga oid qonunchilik hujjatlari va huquqni qo‘llash amaliyotini yanada takomillashtirishni dolzarb etib belgilamoqda<sup>2</sup>.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni (1998), Qoraqalpog‘iston Respublikasining “Xalq deputatlari tuman va shahar kengashi deputatining maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni (2005), Qoraqalpog‘iston Respublikasining yangi tahrirdagi “Normativ huquqiy-hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonuni (2021), O‘zbekiston Respublikasi

<sup>1</sup> <https://www.un.org>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son.

Prezidentning 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158 va 2024-yil 2-fevraldagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-28-son farmonlari va mavzuga oid boshqa qonunchlik hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalish bo‘yicha bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining faoliyati va ularning ayrim nazariy-huquqiy jihatlari S.D.Nietullaev, A.A.Azizxo‘jaev, O.T.Xusanov, Sh.I.Jalilov, E.D.Kutibaeva, Z.A.Reymova, A.To‘laganov, M.K.Najimov, A.A.Dadasheva, G.S.Ismailova, I.R.Bekov, S.A.Murataev, A.M.Imatov, J.M.Ermashov, M.A.Utemuratov, Ya.Y.Ollamov, B.Jo‘raev, Z.S.Israilova, A.A.Maxmudov, A.D.Babadjanov, Sh.Asadov, N.B.Dexkanov tomonidan tadqiq qilingan.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan B.Denters, C.Matusescu, D.Sattertveyt, D.Kukhlei, M.Theodore, R.Wraith, P.J.Klok, A.A.Djagaryan, A.B.Abazov, A.B.Barixin, A.Ya.Suxarev, N.V.Djagaryan, R.L.Yakin, M.V.Maslovskaya va boshqalarning<sup>3</sup> tadqiqot ishlarida davlatlarning huquqiy tizimi va tizim tarkibiga kiruvchi asosiy elementlarning nazariy-huquqiy asoslariga oid rivojlangan davlatlar tajribasi tadqiq qilingan.

Biroq, Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining vakolatlarini takomillashtirish masalalari Konstitutsiyaviy huquq nuqtai-nazaridan hamda ilg‘or xorijiy mamlakatlarning ijobiy tajribasi asosida tahlil qilingan holda kompleks ilmiy tadqiqot ishi sifatida o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Berdaq nomidagi Qoraqalpog‘iston davlat universitetining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq, “Davlat boshqaruvi va axborot jamiyatining barcha sohalarini rivojlantirishning huquqiy asoslarini takomillashtirish yo‘llari” mavzusidagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari doirasida amalga oshirildi.

**Tadqiqotning maqsadi** Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining vakolatlarini takomillashtirishga oid muammolar va ularning yechimlari yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.** Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

Qoraqalpog‘iston mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlarini tadqiq etish;

---

<sup>3</sup> Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

Qoraqalpog‘iston mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining huquqiy maqomini ilmiy tahlil qilish;

Qoraqalpog‘iston mahalliy kengashlarining vakolatlarini sohaga oid qonunchilik asosida atroflicha tahlil qilish;

mahalliy kengashlarning vakolatlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi tuzilmalar hisoblangan kotibiyatlar va komissiyalar faoliyatini tahlil qilish;

mahalliy kengash deputatining vazifa va vakolatlarini hamda uning maqomini ilmiy jihatdan asoslab berish;

xorijiy mamlakatlarning mahalliy vakillik organlari faoliyatiga oid tajribasini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish;

Qoraqalpog‘iston mahalliy vakillik organlari faoliyatini takomillashtirish yuzasidan aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** bo‘lib Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining vakolatlarini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatiga oid ilmiy-nazariy qarashlar, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo‘llash amaliyoti, ayrim xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyoti tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, so‘rovnoma, induksiya, deduksiya va statistik ma‘lumotlar tahlili kabi usullar qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

mahalliy kengashlar kotibiyatlari tomonidan mazkur kengashlar o‘z faoliyatini amalga oshirishiga oid hujjatlar zarurligi sababli ularni axborot-tahliliy, huquqiy, tashkiliy va boshqa jihatdan ta‘minlash amalga oshirilishi kerakligi asoslab berilgan;

kotibiyat tomonidan Kengash va doimiy komissiyalar qarorlarini qonunchilikka va yuridik texnikaga muvofiqligini ko‘rib chiqish va takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash, normativ tusdagi qarorlarning Kengash muhokamasiga kiritilishidan oldin adliya organlarida huquqiy ekspertizadan o‘tkazilishini amalga oshirish lozimligi asoslab berilgan;

mahalliy Kengash deputati tomonidan odob-axloq qoidalari buzilgan taqdirda unga nisbatan tegishli chora qo‘llash yuzasidan mahalliy Kengash yoxud uning topshirig‘iga ko‘ra Odob-axloq masalalari bo‘yicha doimiy komissiya tomonidan deputatning xulq-atvori to‘g‘risidagi masala ko‘rib chiqilishi asoslab berilgan;

mahalliy Kengash tomonidan deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berishni rad etgani deputatga nisbatan jinoyat ishi yuritilishini yoki sud tartibida beriladigan ma‘muriy jazoni nazarda tutadigan ma‘muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ish yuritilishini istisno etadigan va tugatishga olib keladigan holat hisoblanishi asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi Prezidiumining “Xalq deputatlari tuman, shahar Kengashining namunaviy reglamenti va doimiy komissiyalari to‘g‘risidagi namunaviy nizomga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish

to'g'risida"gi qarori loyihasi ishlab chiqilgan va Prezidium tomonidan mazkur qaror 2024-yil 23-fevralda 1537-son bilan tasdiqlangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining "Xalq deputatlari tuman, shahar Kengashining kotibiyati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori loyihasi ishlab chiqilgan va Prezidium tomonidan mazkur qaror 2024-yil 23-fevralda 1538-son bilan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchligi ishda qo'llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy va huquqiy yondashuvlar tegishli rasmiy manbalardan olingani, Qoraqalpog'iston Respublikasi mahalliy kengashlari deputatlari o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlar natijalari umumlashirilgani, ilg'or xorijiy tajriba va sohaga oid milliy qonunchilik hujjatlarini o'zaro tahlil qilingani, shuningdek xulosa va takliflarning amaliyotda joriy etilgani, tadqiqot natijalarining yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingani hamda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan Qoraqalpog'iston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining vakolatlariga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish, qonunchilik hujjatlarining tegishli normalarini sharhlash, qonunchilikni takomillashtirish hamda "Konstitutsiyaviy huquq" fanining dolzarb ilmiy-amaliy muammolari fanlarini o'qitish va ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Qoraqalpog'iston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining vakolatlariga oid normativ-huquqiy hujjatlarni, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda, huquqiy tartibot va qonunchilikni mustahkamlash faoliyatida, aholi va mansabdor shaxslarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishda, shuningdek davlat organlarining amaliyotida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va takomillashtirishda foydalanilgan:

mahalliy kengashlar kotibiyatlari tomonidan mazkur kengashlar o'z faoliyatini amalga oshirishiga oid hujjatlar zarurligi sababli ularni axborot-tahliliy, huquqiy, tashkiliy va boshqa jihatdan ta'minlash amalga oshirilishi kerakligi haqidagi taklifidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining 2024-yil 23-fevraldagi "Xalq deputatlari tuman, shahar Kengashining kotibiyati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 1538-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Xalq deputatlari tuman, shahar Kengashi kotibiyati to'g'risida"gi Namunaviy nizomning 8-bandi ikkinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Mahalliy hokimiyatning vakillik va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari hamda davlat organlarining ochiqqligini ta'minlash masalalari qo'mitasining 2024-yil 1-martdagi 08-08/150-3-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi mahalliy Kengash

kotibiyatlarining axborot-tahliliy, huquqiy, tashkiliy va boshqa jihatlardan faoliyatini tartibga solishga xizmat qilgan;

kotibiyat tomonidan Kengash va doimiy komissiyalar qarorlarini qonunchilikka va yuridik texnikaga muvofiqligini ko'rib chiqish va takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlash, normativ tUSDagi qarorlarning Kengash muhokamasiga kiritilishidan oldin adliya organlarida huquqiy ekspertizadan o'tkazilishini amalga oshirishiga oid taklifidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining 2024-yil 23-fevraldagi "Xalq deputatlari tuman, shahar Kengashining kotibiyati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 1538-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Xalq deputatlari tuman, shahar Kengashi kotibiyati to'g'risida"gi Namunaviy nizomning 8-bandi o'n uchinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Mahalliy hokimiyatning vakillik va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari hamda davlat organlarining ochiqligini ta'minlash masalalari qo'mitasining 2024-yil 1-martdagi 08-08/150-3-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi mahalliy Kengashning kotibiyatlarining norma ijodkorligi faoliyatini tartibga solishga xizmat qilgan;

mahalliy Kengash deputati tomonidan odob-axloq qoidalari buzilgan taqdirda unga nisbatan tegishli chora qo'llash yuzasidan mahalliy Kengash yoxud uning topshirig'iga ko'ra Odob-axloq masalalari bo'yicha doimiy komissiya tomonidan deputatning xulq-atvori to'g'risidagi masala ko'rib chiqilishiga oid taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining 2024-yil 23-fevraldagi "Xalq deputatlari tuman, shahar Kengashining namunaviy reglamenti va doimiy komissiyalari to'g'risidagi namunaviy nizomga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 1537-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Xalq deputatlari tuman, shahar Kengashining namunaviy reglamentiga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalar"ning 5-bandi uchinchi xatboshisini ishlab chiqishda inobatga olingan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Mahalliy hokimiyatning vakillik va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari hamda davlat organlarining ochiqligini ta'minlash masalalari qo'mitasining 2024-yil 1-martdagi 08-08/150-2-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi Kengashning yoki Odob-axloq masalalari bo'yicha doimiy komissiyaning deputatning xulq-atvori to'g'risidagi masala ko'rib chiqishga oid vakolatlarini belgilashga xizmat qilgan;

mahalliy Kengash tomonidan deputatini daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berishni rad etgani deputatga nisbatan jinoyat ishi yuritilishini yoki sud tartibida beriladigan ma'muriy jazoni nazarda tutadigan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuritilishini istisno etadigan va tugatishga olib keladigan holat hisoblanishiga oid taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Prezidiumining 2024-yil 23-fevraldagi "Xalq deputatlari tuman, shahar Kengashining namunaviy reglamenti va doimiy komissiyalari to'g'risidagi namunaviy nizomga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 1537-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Xalq deputatlari tuman, shahar Kengashining namunaviy reglamentiga kiritilayotgan o'zgartish va qo'shimchalar"ning 6-bandini ishlab chiqishda inobatga olingan

(Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining Mahalliy hokimiyatning vakillik va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari hamda davlat organlarining ochiqqligini ta‘minlash masalalari qo‘mitasining 2024-yil 1-martdagi 08-08/150-2-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi Kengash deputatni daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga rozilik berishni rad etgani unga nisbatan sud-tergov ish yuritilishini istisno etadigan va tugatishga olib keladigan holat hisoblanishi tartibini joriy etilishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy anjumanda, jumladan 3 ta xalqaro, 4 ta respublika miqyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda sinovdan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 14 ta, jumladan, OAK tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta (shundan 2 tasi xorijda) maqola, xalqaro va respublika ilmiy konferensiyalar materiallari to‘plamlarida 7 ta tezis chop ettirilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan aloqasi, uning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **birinchi bobi** *“Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahalliy vakillik organlari faoliyatining nazariy-huquqiy asoslari va tarixi”* deb nomlanib, unda Qoraqalpog‘iston mahalliy kengashlari faoliyatining taraqqiyot tendensiyasi hamda nazariy va huquqiy tavsifi tahlil qilingan.

Tadqiqotchi tomonidan **“Qoraqalpog‘iston Mahalliy kengashlari faoliyatining taraqqiyot tendensiyasi”** deb nomlangan dissertatsiyaning 1.1-paragrafida Qoraqalpog‘iston mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining taraqqiyot tendensiyasini vazifa va vakolatlarini takomillashtirilishi, strukturaviy o‘zgarishi hamda mahalliy kengashlar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari ishlab chiqilishi nuqtai-nazaridan kelib chiqib, ikki bosqich (1992 – 2016-y.y.) va (2016-y – h.v.) ga bo‘lgan holda asoslantirilgan.

Xususan, 1992 – 2016-yillarni qamrab olgan 1-bosqichda mahalliy davlat hokimiyati tizimida ijroiya va vakillik organlarining dastlabki vakolatlarini, shuningdek strukturaviy tuzilishini belgilashning institutsional islohotlari davri tahlil qilingan.

Shuningdek, 2016 – hozirgi vaqtga qadar boʻlgan 2-bosqichda 2016-yildan boshlab “Inson qadri uchun” tamoyilidan kelib chiqib, “davlat organlari – xalq uchun” shiori ostida davlat va jamiyat hayotining turli jabhalarida tub islohotlarni amalga oshirish bilan birga, aholining huquq va qonuniy manfaatlarini ifoda etishdan kelib chiqib, davlat organlarining faoliyatidagi institutsional islohotlar tegishli qonunchilik asosida tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpog‘iston mahalliy Kengashlari faoliyatining nazariy va huquqiy tavsifi”** deb nomlangan 1.2-paragrafida *“mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari”, “mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining huquqiy maqomi”, “Qoraqalpog‘iston mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining huquqiy maqomi”* kategoriyalari ilmiy va huquqiy jihatdan asoslab berilib, mualliflik taʼriflari ishlab chiqilgan.

Shuningdek, dissertantning fikricha sohaga oid qonunchilik normalari tahlilidan kelib chiqib, “mahalliy kengashlarni tashkil etilishi tartibi”, “mahalliy kengashlar vakolatlari”, “mahalliy kengashlar faoliyatidagi kafolatlar”ni Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahalliy kengashlarining huquqiy maqomiga kiruvchi masalalar sifatida eʼtirof etish mumkin.

Dissertantning taʼkidlashicha, mahalliy davlat hokimiyatining vakillik organlari faoliyatining mohiyatini fuqarolarning huquq va manfaatlarini ifodalash bilan birga, ularning nomidan jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish tashkil qiladi.

Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatiga oid tadqiqotlarda (A.Barixin, A.Djagaryan, B.Denters va P.Klok, R.Reyt, M.Isabaev, D.Kuxley, G.Ismailova va boshq.) ilgari surilgan nuqtai nazarlar tahlilidan kelib chiqqan holda, dissertant “mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari” tushunchasiga — *hududlar uchun umumiy boʻlgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunchilik hujjatlari ijrosini, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari oʻrtasidagi aloqalarni, aholini hududni boshqarishga jalb etishni taʼminlovchi hududiy xalq deputatlari Kengashlari deb*, taʼrif berilgan.

Mahalliy kengashlar tushunchasiga berilgan mualliflik taʼrifning yuqorida keltirilgan olimlar tomonidan berilgan taʼriflaridan asosiy farqi shundaki, dissertant tomonidan ushbu taʼrif qonunchilik hujjatlariga muvofiq mahalliy kengashlarga berilgan qonuniy vakolatlar va faoliyat yoʻnalishlarini umumlashirilgan holda ishlab chiqilganligini qayd etish lozim.

Tadqiqotchining fikricha, “mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining huquqiy maqomi bu – ularning huquqiy holatini, yaʼni mahalliy kengashlarni tashkil etilishi tartibi, vakolatlari va ularning amalda boʻlish muddati, kengashlar faoliyatining kafolatlari va boshqa tashkiliy-huquqiy munosabatlar majmuidir” degan taʼrifni ilgari surish maqsadga muvofiq sanaladi.

Mazkur taʼrifning boshqa olimlar tomonidan berilgan taʼriflarda uchramaydigan jihati shundaki, kengashlarnig tashkil etilishi tartibi, kengashlar faoliyatining kafolatlari va bogʻliq tashkiliy-huquqiy munosabatlar ham mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining huquqiy maqomiga kiritilgan.

Shuningdek, mahalliy kengashlarga davlat hokimiyatining vakillik organi sifatida xos bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalarini amalga oshirish doirasida aniq vakolatlar berilganligi, ularning huquqiy maqomining asosiy belgilaridan biri ekanligi asoslab berilgan.

S.Nietullaev, Z.Reymova va J.Ermashavlarning mahalliy Kengashning huquqiy statusi haqidagi ilmiy qarashlarini e'tirof etgan holda, dissertant "Qoraqalpog'iston mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining huquqiy maqomi" tushunchasiga "*Qoraqalpog'iston Respublikasi mahalliy kengashlarining tashkil etilishi tartibi, vakolatlari, faoliyat kafolatlari va boshqa tashkiliy-huquqiy munosabatlarni tashkil qiladi*" deb ta'rif berilgan.

Mazkur ta'rifdan kelib chiqib, dissertant Qoraqalpog'iston Respublikasi mahalliy kengashlarining huquqiy maqomiga kiruvchi masalalarni sohaga oid qonunchilik normalari asosida quyidagicha tahlil qilgan:

1) *Mahalliy kengashlarni tashkil etilishi tartibi*. Kengashlar vakillik organlari bo'lganligi sababli, albatta saylov yo'li bilan tashkil etiladi.

2) *Mahalliy kengashlar vakolatlari*. Hududlarni umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalarini amalga oshirishda yuqori turuvchi qonunchilik hujjatlari ijrosini va davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, shahar, tumanni boshqarishga aholini jalb etishni ta'minlash doirasida tegishli vakolatlarni amalga oshiradi.

3) *Mahalliy kengashlar faoliyatidagi kafolatlar*. Mahalliy kengashlar faoliyatining kafolatlari tizimi tegishli qonunchilikda yetarlicha belgilanmagan bo'lsada, kengash deputatlarining faoliyati qonunchilik bilan kafolatlanganligini inobatga olish lozim.

Dissertatsiyaning **ikkinchi** bobi "*Qoraqalpog'iston Respublikasi mahalliy Kengashlari vakolatlarini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslari*" deb nomlanib, unda Qoraqalpog'iston mahalliy kengashlari vakolatlarining umumiy tavsifi, mahalliy kengashlar vakolatlarini amalga oshirishda Kengash tuzilmalarining o'rni, mahalliy kengashlar vakolatlarini deputatlar tomonidan amalga oshirishning huquqiy mexanizmlari tahlil qilingan.

Xususan, dissertatsiyaning "**Qoraqalpog'iston mahalliy kengashlari vakolatlarining umumiy tavsifi**" deb nomlangan 2.1-paragrafida "vakolat" tushunchasi, mahalliy kengash vakolatlarining tasnifi, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining qonunchilik bo'yicha vakolatlari ilmiy va huquqiy tahlil qilingan.

Dissertantning ta'kidlashicha, "*vakolat*" tushunchasi doirasida huquq va majburiyatlarni, kompetensiya tushunchasiga esa shular bilan birga tegishli vazifa va funksiyalarni kiritish maqsadga muvofiq.

Mazkur paragraf doirasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining qonunchilik bilan berilgan vazifa va vakolatlari qonunchilik normalari, mahalliy kengash qarorlari va statistik ma'lumotlar asosida huquqiy tahlil qilingan.

Tadqiqotchining fikricha, mahalliy kengashlarning vakolatlarini sohaviy va amaliy ahamiyatidan kelib chiqib, quyidagicha tasniflash mumkin:

1) Iqtisodiy-moliyaviy vakolatlar (*hududning istiqbolga mo'ljallangan dasturlari va budjetini tasdiqlash; mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini belgilash; hokimlik strukturasi, uning xodimlari shtatlari va ish haqi fondini tasdiqlash; hududning bosh rejasi va uni qurish qoidalarini tasdiqlash*).

2) Norma ijodkorligiga oid vakolatlar (*normativ tusdagi qarorlar qabul qilish; hokim qarorlarini tasdiqlash va qonunchilikka mos kelmaydigan qarorlarini bekor qilish; Kengash Reglamentini, doimiy va boshqa komissiyalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash, ularga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish*).

3) Tashkiliy tusdagi vakolatlar (*mansabdorlarni lavozimga tasdiqlash va lavozimdan ozod etish; doimiy va muvaqqat komissiyalarini, boshqa organlarini tuzish, saylash va tugatish, ularning tarkibini o'zgartirish; xalq deputatlarining vakolatlarini e'tirof etish va muddatidan oldin to'xtatish, qonunlarda belgilangan hollarda va tartibda ularni javobgarlikka tortish uchun rozilik berish; deputatlarining so'rovlarini qarab chiqish va ular yuzasidan qarorlar qabul qilish*).

4) Nazorat qilishga oid vakolatlar (*davlat organlari, korxonalar va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlari va axborotlarini tinglash; partiya guruhleri so'rovi; deputatlik so'rovi; qonun hujjatlarining hududdagi davlat organlari tomonidan ijro etilishini o'rganish*).

Dissertatsiyaning **“Mahalliy Kengashlar vakolatlarini amalga oshirishda Kengash tuzilmalarining o'rni”** deb nomlangan 2.2-paragrafida mahalliy kengashlarning strukturasi kiruvchi kengashlarning ishchi organlari sifatida kotibiyat va komissiyalar, shuningdek partiya guruhleri faoliyati huquqiy tahlil qilingan, “Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahalliy kengashlari strukturasi” tushunchasiga mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchining fikricha, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga “struktura” tushunchasini bog‘lashda sohani tartibga soluvchi milliy qonunchilik normalariga tayanish maqsadga muvofiq. Mahalliy kengash o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vakolatlarini amalga oshirishi va faoliyatini tashkil etishi uchun tegishli apparatiga ega bo‘ladi.

Amaldagi qonunchilikdan kelib chiqib, dissertantning fikricha “Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining strukturasi” deganda, tarkibiga kotibiyat va komissiyalarni qamrab olgan mahalliy kengashlarning ichki tuzilmasini tushunish o‘rinli.

Tadqiqotchining fikricha, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari strukturasi kotibiyatlar muhim funksional vazifalarni bajaruvchi kengash tuzilmalaridan biridir. Ya’ni, mahalliy kengashlar faoliyatiga tashkiliy, texnikaviy va boshqa jihatlardan xizmat ko‘rsatish mahalliy kengashlarning yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan kotibiyati tomonidan amalga oshiriladi.

**“Mahalliy Kengashlar vakolatlarini deputatlar tomonidan amalga oshirishning huquqiy mexanizmlari”** deb nomlangan 2.3-paragrafida “deputatning maqomi” va “deputatning huquqiy maqomi” tushunchalariga mualliflik ta’riflari berilib, mazkur kategoriyalarning ilmiy-nazariy tavsifi huquqiy tahlil qilingan, shuningdek mazkur paragraf doirasida mahalliy kengash deputati maqomiga kiruvchi masalalar, xususan deputatning huquq va majburiyatlari, deputat vakolatlarining

muddati va tugatilish asoslari, deputat faoliyatining kafolatlari, deputat daxlsizligi va daxlsizlik huquqidan mahrum qilish, deputat so‘rovi, deputatlik odobi kabi masalalar ilmiy va huquqiy jihatdan tahlil qilingan.

Dissertant tomonidan “deputatning maqomi” – tushunchasiga *qonunchilik bilan deputatga berilgan barcha vakolatlar, majburiyatlar, daxlsizlik, faoliyat kafolatlari, kasb odobi va ta’minotlar bilan bog‘liq deputatning umumiy holati*” deb mualliflik ta’rifi berilgan.

Shuningdek, “deputatning huquqiy maqomi” – tushunchasiga *“deputatning huquq va majburiyatlari, daxlsizlik huquqini o‘z ichiga olgan deputatning huquqiy holati*” deb ta’rif berilgan.

Mazkur tushunchalar tavsifidan kelib chiqqan holda qayd etish mumkinki, deputatlik faoliyatiga oid barcha umumiy masalalar uning maqomi doirasida keltirilganligi amaldagi qonunchilikda belgilangan, xususan qonunchilikda “deputatning maqomi” tarzida keltirilgan.

Tadqiqotchi tomonidan deputat faoliyatining kafolatlari asosan 2 turga, ya’ni huquqiy va tashkiliy kafolatlarga bo‘lib asoslab berilgan. Jumladan, deputat faoliyatining huquqiy kafolatlariga *“deputatning huquqlari, sha’ni va qadr-qimmatini muhofaza qilinishi”, “deputatning daxlsizlik huquqi”, “harbiy yig‘inlardan ozod qilinishi”* kabi masalalar kiritilgan.

Deputat faoliyatining tashkiliy kafolatlariga esa, “deputatning mansabdor shaxslar tomonidan darhol qabul qilinish huquqi”, “deputatlik faoliyatini ishlab chiqarish yoki xizmat vazifasini bajarish bilan uyg‘un tarzda olib borish”, “deputat faoliyatining axborot hamda moddiy-texnika ta’minoti”, “deputatning transportda tekin yurish huquqi” kabilar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **uchinchi** bobi *“Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahalliy Kengashlari vakolatlarini takomillashtirish istiqbollari”* deb nomlanib, unda ayrim xorijiy mamlakatlarning mahalliy vakillik organlari faoliyatiga oid qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahalliy kengashlari vakolatlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.

**“Ayrim xorijiy mamlakatlarning mahalliy vakillik organlari faoliyatiga oid qiyosiy-huquqiy tahlil”** deb nomlangan 3.1-paragrafida mahalliy vakillik organlari faoliyatiga oid rivojlangan davlatlar tajribasi, xususan Avstriya, Belgiya, Belarus Respublikasi, Buyuk Britaniya, Finlyandiya, Fransiya, Germaniya, Portugaliya, Qozog‘iston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Shimoliy Irlandiya, Shveysariya, Turkiya, Vengriya va boshqa mamlakatlarning ijobiy tajribasi asosida o‘rganilgan va qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan.

Xususan, Rossiya Federatsiyasi tajribasidan kelib chiqib, mahalliy kengashlar faoliyatining prinsiplari sifatida “ochiqlik va oshkoralik”, “muammolarni erkin muhokama qilish” va “birgalikda hal etish” kabi tamoyillarini milliy qonunchilikda belgilash hamda “huquq ijodkorligi subyektlari” va ular tomonidan qaror loyihalarini mahalliy kengashlarga kiritish hamda ko‘rib chiqish tartibini takomillashtirish zarurligi taklif etilgan.

Qozog‘iston Respublikasi tajribasidan kelib chiqib, tadqiqotchi tomonidan vakolatli organlardan mahalliy budjetning ijrosi bo‘yicha o‘tkazilgan tekshirishlar

haqidagi hujjatlarni talab qilish hamda yashil maydonlar muhofazasi qoidalarini tasdiqlash vakolatini mahalliy kengashlarga berilishi taklifi ilgari surilgan.

**“Qoraqalpog‘iston Respublikasi mahalliy Kengashlari vakolatlarini rivojlantirish yo‘nalishlari”** deb nomlangan 3.2-paragrafida mahalliy kengashlar vakolatini takomillashtirish bilan birga ularning faoliyatidagi quyidagi tizimli muammolar tahlil qilingan, ya‘ni *“mahalliy kengash deputatlarining maqomini hududiy jihatdan cheklab qo‘yilganligi; mahalliy kengashlar norma ijodkorligida yuridik xizmatga bo‘lgan zaruriyatning mavjudligi; mahalliy kengashlarda hozirga qadar doimiy asosda ishlovchi deputatlar korpusining shakllanmaganligi; mahalliy kengashlar faoliyatining prinsiplari soha qonunchiligida tartibga solinmaganligi; kengashning doimiy komissiyalari a‘zolarining mas‘uliyati va javobgarlik borasidagi tegishli masalalar tartibga solinmaganligi; amaldagi tartibda, kengash sessiyalarini o‘tkazishda belgilangan vaqt, joy va kun tartibidagi masalalarni kengash deputatlariga yetkazishning aniq muddati va mexanizmlari ko‘rsatilmaganligi; kengash doimiy komissiyalarining va qarorlarining huquqiy maqomini mustahkamlashga bo‘lgan zaruriyat; mansabdor shaxslar hisobotlarining mahalliy kengashlarda eshitishning aniq mexanizmlari yo‘lga qo‘yilmaganligi; mahalliy kengashlar tomonidan hokimning qonunlar bilan birga, barcha turdagi yuqori turuvchi qonunchilik hujjatlariga zid qarorlarini bekor qilish amaliyotining mavjud emasligi; mahalliy kengashlar doimiy komissiyalarining vakolatlarini takomillashtirishga bo‘lgan zaruriyat”*.

Shuningdek, dissertant tomonidan milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotiga quyidagilarni joriy etish mumkinligi taklif etilgan:

– Qoraqalpog‘iston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” Qonuni va huquqni qo‘llash amaliyotiga “deputat murojaati”ga oid qoidalarining joriy etilishi mahalliy kengashlar deputatlarining maqomini yanada mustahkamlash bo‘yicha;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” Qonunida mahalliy kengashlar faoliyatining prinsiplari mavjud bo‘lmaganligi sababli, Qonunda “ochiqlik va oshkoralik”, “muammolarni erkin muhokama qilish” va “birgalikda hal etish” kabi tamoyillari kiritilishiga oid;

– xorijiy mamlakatlar mahalliy kengashlarining budjetlar bo‘yicha vakolatlaridan kelib chiqib ta‘kidlash lozimki, mahalliy budjetlar bu aholining pul mablag‘lari bo‘lib, uning samarali amalga oshirilishi va bu bo‘yicha masalalar nazorati xalq vakillarining asosiy funksional vazifasi bo‘lmog‘i lozim. Shunga ko‘ra, “taftish organlaridan tegishli tuman (shahar) budjeti ijrosi yuzasidan olib borilgan nazorat tadbirlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni so‘rab olish” vakolatini mahalliy kengashlarimizga berilishiga oid;

– xorijiy mamlakatlar mahalliy vakillik organlarining hududlarda “yashil maydonlarni yaratish, saqlash va muhofaza qilish qoidalarini tasdiqlash” vakolatiga oid ijobiy tajribasini bizning ham huquqni qo‘llash amaliyoti va qonunchilikka joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Ilg‘or xorijiy tajribani tahlil qilish asosida tadqiqotchi tomonidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi

Qonunida mahalliy kengashlar faoliyatining prinsiplari sifatida *“faoliyatning mustaqilligi”*, *“demokratizm”*, *“qonuniylik”*, *“ochiqlik va oshkoralik”*, *“muammolarni erkin muhokama qilish”* va *“birgalikda hal etish”* kabi tamoyillarini tegishli norma bilan belgilanishi taklif etilgan.

Shuningdek, tadqiqot ishi doirasida mahalliy Kengashlarga hisobot(axborot)larni taqdim etmaslik, o‘z vaqtida taqdim etmaslik yoxud bila turib yolg‘on yoki noto‘g‘ri ma‘lumotlar taqdim etganlik uchun hisobot beruvchining ma‘muriy javobgarligini belgilash taklifi ilgari surilgan va huquqiy asoslab berilgan.

Tadqiqotchining fikricha, qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotida deputatning maqomi va unga oid barcha qoidalarni butun Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiga tatbiq etilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, deputatning vakolatlarini faqatgina o‘z tumanida emas, balki butun respublika hududida amalga oshirishini ta‘minlash zarur. Shundagina, deputatning maqomi eks-territorial nuqtai-nazardan yanada oshadi.

Xalq deputatlari Kengashlarida doimiy asosda ishlovchi deputatlar korpusini tashkil qilgan holda, ularga moddiy-texnik jihatdan ta‘minlash (oylik, ish joyi, moddiy rag‘bat va boshqa kafolatlar), shu bilan haq to‘lanadigan boshqa turdagi faoliyat bilan shug‘ullanishlarini ta‘qiqlash taklif etilgan.

Doimiy komissiyalar sonini maqbullashtirish hisobiga, sohaviy bir-biriga o‘xshash bo‘lgan komissiyalarning vakolatlarini tizimlashtirilishi maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan.

Mahalliy kengashlar qarorlarini qonunchilik va qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligini ta‘minlash maqsadida adliya organlari tarkibidagi Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari tomonidan yuridik xizmat ko‘rsatiladigan davlat organlarining ro‘yxatiga mahalliy kengashlarning ham kiritilishi taklif etilgan.

Dissertant tomonidan mahalliy kengashlarning navbatdan tashqari sessiyalarini chaqirishda sessiya o‘tkaziladigan vaqt, sana, joy va kun tartibi haqida deputatlar e‘tiboriga yetkazishning aniq muddatini belgilash lozimligi haqidagi taklifi ilgari surilgan.

